



PSIXOLOGIK KORREKSIYANING TAMOYILLARI VA UNI TASHKIL ETISH

Turamov Muhammadzohid Rustamjon o'g'li

University of Business and Science

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Tel: +998 99 461-55-99

turamovmuhammadzohid@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Psixolog ishida korreksion vazifalarni yechish maqsadida psixologik yordamni tashkil etishga bog'liq ravishda uning turini ko'rsatish mumkin: madaniy oqartuv ishlari, maslahat-tavsiyalar berish, individual va guruhii korreksiya.

Kalit sozlar: Psixologik korreksiya, mijoz, psixika, intensivlik, diagnostika, uzluksizlik tamoyili

PRINCIPLES OF PSYCHOLOGICAL CORRECTION AND ITS ORGANIZATION

Annotation: This article outlines the types of psychological assistance organized by psychologists in order to address correctional tasks. These include cultural-educational activities, providing consultations and advice, as well as individual and group correction.

Keywords: Psychological correction, client, psyche, intensity, diagnostics, principle of continuity



ПРИНЦИПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОРРЕКЦИИ И ЕЁ ОРГАНИЗАЦИЯ

Аннотация: В данной статье рассматриваются виды психологической помощи, организуемой психологом с целью решения коррекционных задач. Это культурно-просветительская работа, консультирование и предоставление рекомендаций, индивидуальная и групповая коррекция.

Ключевые слова: Психологическая коррекция, клиент, психика, интенсивность, диагностика, принцип непрерывности

Kirish

Zamonaviy psixologiyada insonning psixik holatini yaxshilash, ichki muvozanatini tiklash va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishga qaratilgan **psixologik korreksiya** muhim amaliy yo‘nalish hisoblanadi. Bu jarayon insonning individual psixik xususiyatlarini inobatga olgan holda, uni qulayroq holatga keltirish, mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratilgan psixologik ta’sirlar majmuasidan iboratdir.

Psixik taraqqiyotni tuzatish “korreksiya qilish” atamasi dastlab defektologiyada kasal bolalarga nisbatan ishlatilgan bo‘lsa, amaliy yosh psixologiyasining rivojlanishi bilan “tuzatish” tushunchasi normal psixik taraqqiyot uchun ham qo‘llanila boshladi.

Psixologik xizmatning Psixokorreksiya yo‘nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta’sir o‘tkazishni taqozo qiladi. Xalq ta’limi tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan qoida, mezonga asoslanib tashkil qilishdan iborat bo‘lib, yosh davr xususiyatlariga binoan (bolalar, o‘quvchilar, talabalar) psixikaning rivojlanishi, shaxsning shakllanishi qommiyatlarini amaliyotda hisobga olgan holda faoliyat olib borish, o‘qituvchilar jamoasiga bolalar, o‘quvchilar va talabalar ta’lim-tarbiyasini individuallashtirishda



yordamlashish, ularning qobiliyati, maylining darajasiga qarab o'qituvchilarga korreksion ishlarni amalga oshirishda ko'rsatmalar berishdan iborat. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa - bu bolalar, o'quvchilar, talabalar o'sishida (rivojlanishida) kechikish (orqada qolish), ularda xulqning buzilishi, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Umuman, Psixologik xizmatning Psixokorreksiya yo'nalishi muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiyaning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan. Bu xaqda qadimgi va dastlabki psixologik tasavvurlar makoni bo'lmish hindiston, Xitoy, Mirs, Vavilon, O'rta Osiyo, Gretsiyadan, shuningdek, jon (ruh) xaqidagi I- kitobning muallifi Aristoteldan va temperament (mijoz) ta'limotining asoschilari Galen, Gippokrat va Ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar psixologlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Ushbu tadqiqot ta'lim muassasalarida psixologik korreksiyaning samaradorligini tekshirish uchun aralash usullardan foydalangan. Maqolani yozish davomida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Psixokorreksion dasturlarni tuzishda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur:

- korreksion ishning aniq maqsadini belgilash.
- korreksion ishning konkret maqsadini aniqlovchi vazifalarni aniqlash.
- Ishning formasini aniqlash (individual, guruhiy yoki aralash)
- Metodika va texnikani ishlab chiqish.
- Korreksion ishga ketadigan umumiy vaqtni aniqlash.
- Uchrashuv kunlarini belgilab olish.
- Vaqtini aniqlash (boshida 10-15 minut, oxirida 1,5-2 soat)
- Korreksion dasturni ishlab chiqish va mazmun mohiyatini belgilab olish.
- Korreksion ishda yaqin qarindoshlarining qatnashuvini belgilash.



- Korreksion dasturni boshlashda dinamika va o'zgartirishlar bo'lishi yoki bo'lmasligini belgilash.

Korreksion tadbir so'ngida korreksion dasturning samaraliligi, maqsad va vazifalarining bajarilganligiga baho beruvchi xulosa hisobot tayyorlanadi.

Psixokorreksion tadbirlarning samaraliligini baxolash quyidagicha mezonda aniqlanadi:

A) rivojlanishdagi qiyinchilikning yechilishi barxam topishi.

B) maqsad va vazifalarning belgilanishi korreksion effektivligi o'zoq muddatdan so'ng ish davom etayotganda, oxirida aniqlanadi.

Korreksion dastur muammoning butunlay hal bo'lishini oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, balki samarali ish olib borishda muammolarning yo'qolishi va yechilishiga xar tomondan baho berilayotganiga ham qaraladi.

Masalan: mijoz uchun dasturda ishtirok etayotgan vaktida uning emotsional holatining yaxshilanishi, ijobiy his qilishi bilan belgilanadi.

Psixolog uchun korreksion dastur tashkil etilishi, majburiyatni his etishi oldiga qo'yilgan vazifani bajarilishi bilan aniqlanadi.

Mijozning yaqinlari uchun esa, mijozda paydo bo'lgan muammoning qay tarzda ijobiy hal etilganligi bilan aniqlanadi. Korreksion dasturlarning ijobiy ta'sir doirasi uning intensivligidadir.

Psixologik korreksiyaning maqsadi

Psixologik korreksiya quyidagi maqsadlarga ega:

- Shaxsda mavjud bo'lgan emotsional, ijtimoiy yoki kognitiv muammolarni bartaraf etish;
- Insonning ichki resurslarini faollashtirish;
- Sog'lom psixik rivojlanish va moslashuvni ta'minlash;
- Salbiy xulq-atvor shakllarini o'zgartirish.

Psixologik korreksiyaning asosiy tamoyillari

- **Individuallikka yondashuv tamoyili**



Har bir insonning shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va muammolari turlicha bo'lishi sababli, korreksiya individual yondashuv asosida olib boriladi.

➤ **Ixtiyoriylik va motivatsiya tamoyili**

Korreksion ishlar faqat shaxsning roziligi va ishtirok etishga tayyorligi asosida amalga oshiriladi. Majburlov samarasiz bo'lishi mumkin.

➤ **Konfidensiallik tamoyili**

Psixologik korreksiya jarayonida ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiy saqlanadi. Bu ishonch muhitini ta'minlaydi.

➤ **Moslashuvchanlik va uzluksizlik tamoyili**

Korreksion jarayon insonning rivojlanish bosqichlariga, ehtiyojlariga va holatiga qarab moslashtiriladi va uzluksiz olib boriladi.

➤ **Ijtimoiy yo'naltirilganlik tamoyili**

Korreksion ishlar insonning ijtimoiy muhitga moslashuv darajasini oshirishga qaratiladi.

Psixologik korreksiyaning tashkil etish bosqichlari

✚ **Diagnostika**

Dastlab psixologik testlar, suhbat va kuzatuv orqali muammo aniqlanadi.

✚ **Rejalashtirish**

Korreksion strategiya ishlab chiqiladi, metod va texnikalar tanlanadi.

✚ **Amaliy ishlar**

Psixologik mashg'ulotlar, treninglar, terapevtik suhbatlar o'tkaziladi.

✚ **Monitoring va baholash**

O'zgarishlar baholanadi, kerak bo'lsa, strategiya qayta ko'rib chiqiladi.

✚ **Natijalarni mustahkamlash**

Erishilgan ijobiy o'zgarishlarni barqarorlashtirish bo'yicha ishlar olib boriladi.



XULOSA

Psixologik korreksiya insonning ruhiy holatini tiklash va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Uning samaradorligi to‘g‘ri tashkil etilgan tamoyillar asosida, individual yondashuv va ishonch muhitiga tayanadi. Mutaxassisning kasbiy malakasi, empatiyasi va metodik yondashuvi bu jarayonning muvaffaqiyatini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nemov R.. Psixologiya .Kn.3. Psixodiagnostika.M.: 1998.
2. Nemov R.S. Psixologicheskoe konsultirovanie.-M.: VLADOS 2003.-528 s.
3. Nishanova Z.T., Xalilova N.I.Psixokorreksiya .- T.: Fan va texnologiya nashriyoti.2007.
4. Nishanova Z.T., Asomudinova SH. Psixologik maslahat. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010 -248 b.